

TALABALARDA NOTIQLIK SAN'ATIDAN FOYDALANISHNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI TO'G'RISIDA OLIMLARNING QARASHLARI

Avulova Nargiza Toxirovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrsi assistenti

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta'lim mazmunini isloh qilishning yo'nalishlaridan biri kompetentlik yondashuvini joriy etish bo'lib, u bir qancha kompetensiyalarga ega bo'lgan, xususan, o'z fikrini ishonchli ifoda eta oladigan, ta'sirchan fikrga ega bo'lgan talabani shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda notiqlik san'ati alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy oliy ta'lim, notiqlik, san'at, pedagog, ritorika, V.Yu.Pinchuk, G.Bondarenko, M.G.Sagach, S.Abramovich, A.Nurmanov.

Аннотация. Одним из направлений реформирования содержания современного высшего образования является внедрение компетентностного подхода, предполагающего формирование студента, обладающего рядом компетенций, в частности, способного уверенно выражать свое мнение и имеющего впечатляющий ум. Особое значение в этом имеет ораторское искусство.

Ключевые слова: современное высшее образование, ораторское искусство, искусство, преподаватель, риторика, В.Ю.Пинчук, Г.Бондаренко, М.Г.Сагач, С.Абрамович, А.Нурманов.

Abstract. One of the directions of reforming the content of modern higher education is the introduction of a competency approach, which involves the formation of a student who has a number of competencies, in particular, who can confidently express his opinion and has an impressive mind. The art of oratory is of particular importance in this.

Keywords: modern higher education, oratory, art, teacher, rhetoric, V.Yu.Pinchuk, G.Bondarenko, M.G.Sagach, S.Abramovich, A.Nurmanov.

Kirish. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida notiqlik qobiliyati kasbiy yo'naltirilgan fan sifatida ritorik va pedagogik faoliyat tamoyillarini yoritib berishga mo'ljallangan va o'qituvchilarning kasbiy nutqini tayyorlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Rus pedagogi A.E.Kucherukning fikricha, "notiqlik fanlararo tushuncha bo'lib, u quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: ommaviy nutq qiluvchi tomonidan ishlab chiqarish, talaffuz qilish va introspeksiya mexanizmlari haqidagi ilmiy nazariya, samarali shaxslararo muloqot va shu nazariyaga mos keladigan tarbiyaviy intizom; so'z, ishontirish orqali pedagogik ta'sir qilish san'ati; logos, etos va pafos asoslariga qurilgan maqsadga muvofiq, ishonarli nutq jarayonidir". Antik davrlardan boshlab notiqlikning ilk kurtaklari paydo bo'lishini o'sha davr falsafasi hamda logika (mantiq) ilmiga uyg'un ravishda o'sib borganini biz inkor qilolmaymiz. Ritorikaning bugungi kungacha to'laqonli shakllanish davriy ketma-ketlik algoritmini bizgacha tahlil qilgan ko'plab olimlarning asosli fikrlariga bevosita qo'shilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Notiqlik san'ati haqida ilmiy kuzatishlar olib borgan yevropalik pedagog olim V.Yu.Pinchukning izohlashicha, "notiqlik san'ati – muloqot sohasidagi samarali nutqiy muloqot nazariyasi bo'lib, nutq qo'yilgan maqsadga erishish va pedagogik

faoliyat vazifalariga muvofiq tashkil etilishi uchun optimal nutq texnologiyalarini ijodiy qo'llash imkoniyatini beradi" deb aytib o'tgan.

Ushbu ilmiy nazariyaga hamohang ravishda yana bir pedagog olim G.Bondarenko ham o'z kuzatishlariga tayanib, "notiqlik san'ati, bo'lajak mutaxassisning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, talabning jonli nutq amaliyotida notiqlik qoidalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy nutqni o'zlashtirishning nazariy va amaliy tomonlarini ochib berish muammosini hal qilishni ta'minlashi kerak bo'lgan qisman ritorika turidir. Chunki u umumiy notiqlikning asosiy qoidalarini aniqlash imkonini beradi" deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mazkur maqolada pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida tizimli-tahliliy hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi, shuningdek, notiqlik san'atiga oid ilmiy manbalar kontent-analiz qilindi. Bundan tashqari, talabalarda ritorik kompetensiyani shakllantirish omillarini aniqlashda kuzatish, umumlashtirish va nazariy modellashtirish metodlari qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. M.G.Sagach akademik notiqlikning uch turini ajratib ko'rsatadi:

1. "to'g'ri akademik (ilmiy ma'ruza, taqriz, insho, muhokama);
2. universitet notiqligi (ma'ruza, ma'ruzalar turkumi);
3. maktab nutqi (maktab ma'ruzasi, tavsifi, hikoyasi, suhbatlari)".

Ukrainalik pedagog olim M.G.Sagachning aytishicha, "universitet va maktab notiqligi (o'qituvchi notiqligi) ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, ular o'qituvchining jonli nutqining nafaqat aqlga, balki aqlga qaratilgan kuchli axloqiyestetik, kongnitiv-tarbiyaviy salohiyatini qayd etganlar. Birinchi navbatda o'quvchilarning qalbiga so'z orqali kirib boriladi" deb keltirib o'tadi. Ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan pedagoglar S.Abramovich va M.Chikarkovalarning fikriga ko'ra, "akademik notiqlikni tadqiqot natijalari haqida hisobot beruvchi yoki fan yutuqlarini ommalashtiradigan olim va o'qituvchining notiqlik faoliyatidir. Uni qo'llash doirasi maktab va ilmiy auditoriya hisoblanadi. Olimlar akademik notiqlikning asosiy belgilarini benuqson mantiq, dalil, fikrlashning aniqligi, bir ma'noli terminologiya, deb belgilaydilar" deya izohlashganlar.

Tadqiqotimizdagi asosiy tushunchalardan biri "ritorik kompetensiya"dir. Bugungi kunda ritorik qobiliyatning yagona talqini yo'q. Olimlar bu tushunchani turlicha izohlaydilar. A.Nurmanovning fikricha, "ritorik kompetensiya til, nutq, muloqot va muloqotga oid bilimlar (tashabbuskorlik, muloqotga kirishish qobiliyati) to'g'risidagi bilimlar yig'indisini o'zida mujassam etadi".

Bizningcha, ritorik kompetentsiya - bu kommunikativ qobiliyatning yuqori darajasi; samarali muloqot qilish qobiliyati va tayyorligini belgilovchi ritorik bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish. A.Nurmanov ritorik kompetentsiya tuzilishini bir necha tekislikda tekshiradi:

“klassifikatsiyalangan ritorik tarmoq bilimlar yig‘indisini psixolingvistik hamda verbal muloqot shakllari bilan qo‘llashga talabalarni o‘rgatish;

nutq tempi va intonatsion vositalarni sahnada auditoriya holatini empirik anglab, yetkazib berish ko‘nikmalarini boyitish;

nutq vaziyatiga muvofiq muloqot qobiliyatlari; kommunikativ maqsadga erishish uchun tanlangan vositalardan foydalanish qobiliyatini qo‘llash;

axloqiy va (qadriyatlar, qadriyat yo‘nalishlari, shaxsning ma‘naviyati); kommunikativ faoliyat (kommunikativlik);

nutqiy harakatning ta‘sirchanligi (rejalashtirilgan pragmatik natijaga erishish uchun nutqning ekspressiv va emotsional vositalarini o‘zlashtirish mahorati)”. haqidagi fikrlarini aytib o‘tadi.

Bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy tayyorlashning tizimli ritorik jarayonini o‘quv faoliyati hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish sohasiga moslashtirish, kasbiy muloqotning mantiqiyliigi, etikasi va estetikasi hamda pedagogik o‘zaro ta‘sir samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta‘minlash kerak.

Oliy ta‘lim muassasalari ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarida talabalarning notiqlik san‘atidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki u ularga so‘z bilan ta‘sir qilish imkoniyatini beradi, madaniy jihatdan mos ta‘lim va tarbiyani rivajlantirishning kommunikativ va kasbiy texnologiyasini o‘zlashtirishga o‘rgatadi. Ishonchli nutqqa ega bo‘lish talaba shaxsiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarida talabalarning mohirlik bilan egallashi kerak bo‘lgan bir qator kompetentsiyalar orasida ritorik kompetentsiya alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu uning ijtimoiy-madaniy va jamoat-kasbiy hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon beradi. Shunga ko‘ra, notiqlik san‘ati yordamida ko‘p madaniyatli va pedagogik muhitga tez ko‘nikadigan, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli vaziyatlarni hal etishning samarali yo‘llarini topa oladigan, ijodiy, innovatsiyaga yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash zarur. Ukrain pedagog olimlari L.Podolyak va V.Yurchenkolar tadqiqotlarida, “talabalar quyidagi yosh xususiyatlari bilan ajralib turadi: ma‘lumot darajasi, raqobatga intilish, yuqori ijtimoiy faollik, intellektual va ijtimoiy yetuklikning uyg‘unligi” haqida alohida to‘xtalib o‘tishgan. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, talabalarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga jalb etish ularning ontogenetik xususiyatlarini o‘rganib analitik izohlash jarayoni bilan ham kechadi.

“Talabalarning aksariyati puxta bilim olishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, kasbiy va umumiy malakalarni egallashga, o‘quv va ilmiy faoliyatda faol namoyon bo‘lishga intiladi. Aynan talabalik yoshida kasbiy mahorat shakllana boshlaydi, dunyoqarash qadriyatlari shakllanadi va inson o‘zini ko‘plab ijtimoiy rollarda amalga oshiradi va yumshoq ko‘nikmalarni kashf etadi va rivojlantiradi”.

Shaxsning dunyoqarashi uning emtsional irodaviy harakterdagi sifatlari psixofiziologik rivojlanish bosqichida shiddat bilan o‘zib boradi. Bunday o‘zgarishlarni ilmiy tahlil qilgan olimlardan L.Podolyak va V.Yurchenkoning quyidagi fikrlariga tayanamiz. Ularning aytishicha, “jismoniy rivojlanish yosh organizmning fiziologik, hissiy va motor funksiyalarining turli tomonlariga tegishli ekanligini tushuntiradi. U inson hayotining birinchi lahzalaridan boshlanib, talabalik yoshida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga etib boradi va mushak kuchi, reaksiya tezligi, harakat epchilligi va jismoniy chidamliligining eng yuqori darajasi bilan ajralib turadi”. Ya’ni talaba aynan har tomonlama shakllangan psixofiziologik xususiyatlarning barchasini o‘zida mujassam etgan etuk shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan ularning ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida notiqlik mahoratini oshirish hamda notiqlik san’atidan foydalanishga o‘rgatish bu yoshda judayam qulay imkon beradi. “talabalar o‘quv yuklamasiga jismonan tayyor, bo‘lajak imkon beradi. “talabalar o‘quv yuklamasiga jismonan tayyor, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy malakasini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli vazifalarni bajara oladi”.

Notiqlikning talabalarda namoyon bo‘lishidagi ilk bosqich boshqa bir mashhur notiqning nutqlarini yodlashga asoslanadi. Ularda axborotni tanlash, tartibga solish va qayta ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Aynan talabalik davrida ushbu kasbiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligida ularning markaziy asab tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan neyrofiziologik xususiyatlarni hisobga olish muhimdir. Atoqli psixolog olimlarimizdan E.G‘oziyevning fikricha,

“ogohlantirishlarning har qanday ta’siriga (xususan, og‘zaki signal) reaksiyaning eng kichik yashirin davri, ya’ni unga eng tez reaksiya;

barcha analizatorlarning optimal mutlaq va tanib olish sezuvchanligi;

miya yarim korteksining eng katta plastikligi va murakkab psixomotor va boshqa ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori moslashuvchanlik;

vizual va eshitish modalligining qisqa muddatli xotirasining eng katta miqdori (mnemonik funksiyalar dinamikasining inson faoliyatining tabiatiga bog‘liqligi mavjud; faol aqliy faoliyat yuqori xotira ko‘rsatkichlariga yordam beradi);

e’tiborning yuqori ko‘rsatkichlari (18 yoshdan 33 yoshgacha bo‘lgan e’tiborning hajmi, almashinishi, tanlanganligi asta-sekin o‘zib boradi);

intellektual funksiyalarning optimal rivojlanishi 18-20 yoshga to‘g‘ri keladi;

og‘zaki va mantiqiy vazifalarni hal qilishning eng yuqori tezligi (fikrlashning har xil turlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvi bilan fikrlash-nutq operatsiyalarining murakkab tabiati, majoziydan mantiqiy va aksincha moslashuvchan o‘tish);

barcha turdagi tuyg‘ularning intensiv rivojlanishi, hayotiy sharoitlarga hissiy sezgirlikning oshishi”. Bundan ko‘rinib turibdiki inson nutq faoliyati judayam murakkab

jarayon hisoblanadi. Oliy nerv faoliyati va markaziy asab tizimining ishlash funksiyasi borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan psixofiziolog olim

Q.A.Niyozovning fikricha, “tirik organizmlar tashqi va ichki muhit o‘zgarishlariga doimo bir butunligicha javob beradi. Bunda to‘qimalar va Bunda to‘qimalar va organlarini birlashtirishda, shuningdek bir butun organizmning muhit

o‘zgarishlariga moslashtirishda markaziy nerv sistemasining ahamiyati juda katta.

Nihoyatda murakkab bo‘lgan odam organizmidan sistemalilik ko‘p pog‘onalidir. Odatda yuqori pog‘onadagi sistemalarga pastki pog‘onadagilari bo‘ysunadi va birlamchilar birlamchilar tomonidan boshqarilib turiladi. Markaziy nerv sistemasini boshqaruvchi sistemalarning yuqori pog‘onasida turadi.

Talabalik yillarida shaxsning intellektual rivojlanishining ushbu ko‘rsatkichlari kasbiy rivojlanishga, xususan, kasbiy yo‘naltirilgan notiqlik qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Belgilangan kompetentsiyani shakllantirish talabasining tizimli va konstruktiv fikrlashni, o‘z munosabatini ijodiy fodalashni, boshqalarning fikriga sabr-toqatli bo‘lishni va muvofiqlashtirilgan nutqiy hamkorlikka tayyor bo‘lishni o‘rganishiga yordam beradi.

Demak, talabalik davri insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida eng samarali hisoblanadi. Insonda 18-25 yosh oralig‘ida butun kelajakdagi hayoti davomida erishishi mumkin bo‘lgan kasbiy muvaffaqiyat hamda shaxsiy karyerasini o‘stirishga bo‘lgan ishtiyoq kuchli bo‘lishi aniqlangan. Intellektual qobiliyat hamda kreativlik ko‘nikmalari ham yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dunyoning ko‘plab olimlari inson intellektining shartli belgilari namoyon bo‘lishini turlicha yoritib bergan. Shunday olimlardan L.Kanibolotska kasbiy motivatsiya va kognitiv xususiyatlarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Ya’ni:

“o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quvchilarda kasbiy ahamiyatga molik qobiliyat va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish motivatsiyasini shakllantirishga yo‘naltirish;

kognitiv, shaxsiy-reflektiv, tashkiliy-faol va lingvistik-stilistik komponentlarning uyg‘unligi sharoitida kasbiy malakali mutaxassisni shakllantirish mumkin;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini ritoriklashtirishni joriy etish;

kommunikativ faollik va kompetentsiyani oshirishga qaratilgan interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish lozim” deya aytib o‘tadi.

Xulosa. Pedagogik olimlar B. Ziyomammedov va M. Tojiyevlarning “Pedagogik texnologiyalar – zamonaviy o‘zbek milliy modeli” nomli kitobida yozilishicha, evropalik olim P.Ilin shunday deydi, “jamoadagi shaxslararo aloqalar faoliyatini o‘rganib, ta’lim jarayonida o‘qituvchining talabalar bilan hamkorligini tashkil qilish o‘qituvchining muloqotga bo‘lgan ehtiyojini bajarish vositasi emas, balki o‘quv materialini o‘zlashtirishning ham vositasidir” deb izohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андрущенко, В.П. Луговой В.Н. ред., Особенности ориентированных технологий навчання и виксование в новых начальниках закладках. -М: Педагогическая думка. 2018. С. 183
2. Аннушкин, В. И. Риторика / В. И. Аннушкин // Экспресс-курс: учеб. пособие. М.: Наука, 2008.
3. Анисимова Т.В., Гимпельсон Е.Т. «Современная деловая риторика» Учебное пособие: 4.1.- Волгоград, 1998. - 256 с.
4. Аннушкин В.И. «Риторика» Вводный курс для студентов
5. филологических факультетов. М., 2004а. - 320 с
6. Абрамович, С.Д. Чикарькова, М.Ю. Риторика: учеб. пособие. Львов: Мир. 2001. С. 110.
7. 6.Qodirov.Q.B. "Imom at-Termiziy hadislarida tarbiya va islom madaniyati", -(Monografiya), Toshkent - 2011 y. 52-bet.
8. Qodirov.Q.B. "Sog'lom avlod tarbiyasida e'tiqodning o'rni va ahamiyatini o'rganishning pedagogik muammolari xususida", - (Maqola), "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnali. ISSN. 2010-5460 №7-8(75-76). Toshkent. 2010-y.

